



ARAB TILSHUNOS OLIMLARINING O'TIMLI VA O'TIMSIZ FE'LLARGA OID QARASHLARI

Kamoldinova Muqaddas

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi, 2-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19547784>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 11-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 13-aprel 2026 yil

KEYWORDS

arab tilshunosligi, o'timli fe'l,
o'timsiz fe'l, ega, to'ldiruvchi,
fe'liy jumla.

ABSTRACT

Arab tili grammatik tizimida fe'l gapning markaziy va eng murakkab turkumlaridan biri bo'lib, uning sintaktik vazifalari hamda semantik qirralari doimo tilshunoslar diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu maqolada fe'llarning o'timli va o'timsiz guruhlariga ajratilishidagi fundamental nazariy asoslar hamda ularning klassik grammatikadagi o'rni tahlil qilindi. Fe'llarni turkumlashda olimlar o'rtasidagi mavjud ixtilofli qarashlar, xususan, terminologik nomlash va tasniflash mezonlari qiyosiy o'rganildi. Maqolada o'timsiz fe'llar bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos lisoniy hodisa — eganing semantik tabiati masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dunyo tillarining barchasida fe'l gapning markazi hisoblanadi. Agar ot predmetni bildirsa, fe'l o'sha predmet atrofida sodir bo'ladigan harakat, holat va jarayonlarni birlashtiradi. Tilshunoslikda fe'lning eng muhim xususiyatlaridan biri uning valentligi, ya'ni o'z atrofiga ega, to'ldiruvchi kabi bo'laklarni yig'ish qobiliyatidir. Aynan mana shu qobiliyat fe'llarni o'timli va o'timsiz guruhlariga ajratadi. Ma'lumki, arab tili o'zining boy morfologik va sintaktik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Arab tili grammatikasida fe'lning boshqaruvchi omil sifatidagi roli juda yuqori. Ushbu til grammatikasi tizimida fe'l nafaqat zamon va shaxsni ifodalovchi, balki gapning sintaktik qurilishini belgilovchi asosiy unsur hisoblanadi. Klassik arab tili grammatikasining tamal toshini qo'ygan Sibavayhi, Ibn Jinniy va keyinchalik Ibn Molik kabi olimlar fe'llarning boshqaruv xususiyatiga ko'ra tasniflanishiga alohida e'tibor qaratganlar. Bu tasnifning markazida fe'lning o'zidan keyingi so'zga ta'sir o'tkazish darajasi, ya'ni o'timlilik va o'timsizlik tushunchalari turadi.

Asosiy qism: Sibaveyhi "الكتاب" asarida o'timli va o'timsiz fe'llarga batafsil ma'lumot bergan. Tilshunosning asarida boshqa grammatik asarlardan farqli o'laroq ushbu fe'llar boshqa iboralar bilan ataladi. Ya'ni o'timli fe'lni "باب الفاعل الذي يتعداه فعله إلى مفعول" (fe'li to'ldiruvchiga ta'sir qiladigan ega bobi)", o'timsiz fe'lni esa "باب الفاعل الذي لا يتعداه فعله إلى مفعول" (fe'li to'ldiruvchiga ta'sir qilmaydigan ega bobi)" deya nomlaydi¹. Arab tili grammatikasida ega asosiy bo'lak, to'ldiruvchi esa qo'shimcha, ikkinchi darajali bo'lak hisoblanadi. Sibaveyhi gapning asosiy bo'lagi va fe'lning

¹ أبو بشر عمرو بن عثمان بن قنبر سبويه. الكتاب. - القاهرة: مكتبة الناجي، 1988. - ص 33

birinchi darajali bog'lanishi egaga e'tibor qaratgan. Chunki fe'l o'timli yoki o'timsiz bo'lishidan qat'iy nazar birinchi navbatda egaga o'z ta'sirini o'tkazib, uni bosh kelishigida kelishiga sabab bo'ladi. Agar fe'l ega bilan chegaralanib, to'ldiruvchiga ta'sir ko'rsata olmasa u o'timsiz, aksincha egadan tashqari to'ldiruvchiga ta'sir etsa bu o'timli fe'l'dir. Ikkala holatda ham boshlanish nuqtasi ega bo'lgani uchun, muallif bu tahlillarni aynan ega bobi doirasida tizimlashtirgan. Shuningdek, Mustafu G'alayoniy "جامع الدروس العربية" (Arab tili darslari to'plami)" asarida "متعدي" (o'timli) va "لازم" (o'timsiz) terminidan tashqari fe'l to'ldiruvchiga bog'lana olganligi uchun "الفعل غير الواقع" (kirishuvchi fe'l)", bog'lana olmagan uchun esa "الفعل المجاوز" (o'timli fe'l)", ta'sir o'tkaza olmaganligi uchun esa "الفعل غير المجاوز" (o'timsiz fe'l)" kabi terminlarni qo'llaydi². Muallif ushbu iboralardan foydalanish orqali grammatikadagi fe'l va to'ldiruvchi o'rtasidagi sintaktik va mantiqiy aloqani oson tushuntirib berishni maqsad qilib olgan. Ibn Aqiyl al-Hamadoniy ham "شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك" (Ibn Molikning Alfiyya asariga Ibn Aqiylning sharhi)" asarida o'timli fe'l'ni "المجاوز" (kirishuvchi, o'timli fe'l)", o'timsiz fe'l'ni esa "الفعل القاصر" (zaif fe'l)", "متعدي بحرف الجر" (predlog orqali o'timli bo'la oladigan fe'l)" deya atash mumkinligini ta'kidlaydi³. Mustafu Abdulazim Ahmad "الأفعال المتعدية بحرف الجر في اللغتين العربية و العبرية" (Arab va ibroniy tilidagi predlog orqali o'timli bo'luvchi fe'llar)" nomli ilmiy ishida fe'llarni uch guruhga taqsimlaydi. O'timli va o'timsiz fe'llardan tashqari uchinchi guruhga kiruvchi, predlog orqali o'timli bo'la oladigan fe'llarni "الفعل القاصر" (zaif fe'l)" deb nomlaydi⁴. Ba'zi klassik asarlarda ham predloglar orqali o'timli bo'la oladigan fe'llar alohida guruh sifatida ajratiladi. Ammo "الفعل القاصر" (zaif fe'l)" termini bu fe'llarga nisbatan qo'llanilmagan.

Ko'plab arab tilshunos olimlarining fikriga ko'ra, fe'l ikki qismga o'timli va o'timsizga bo'linadi. Lekin ba'zi olimlar esa fe'llarni uch qismga ajratadi. Bunga o'timli fe'llar, o'timsiz fe'llar va o'timli ham o'timsiz ham bo'la olmaydigan fe'llar kiradi. Ular uchinchi qismga "كان وأخواتها" kabi noqis fe'llarni misol qilib keltirishadi. Xususan, Ibn Xishom al-Ansoriyning ham "إلى ألفية ابن مالك" (Ibn Molikning Alfiyya asarini tushunishning eng oson yo'llari)" asarida fe'llar xuddi shunday uch qismga taqsimlangan⁵. Abbos Hasan esa "النحو الوافي" (Mufasssal grammatika)" asarida fe'llarni ushbu jihatdan to'rt toifaga ajratadi. Bittadan uchtagacha to'ldiruvchiga bevosita sintaktik ta'sir o'tkaza oladigan o'timli fe'llar, predlogning yordami bilan boshqariladigan o'timsiz fe'llar, "نصح - nasihat qildi", "شكر - minnatdor bo'lmoq" kabi ham o'timli ham o'timsiz holda ishlatiladigan fe'llarni "الفعل التام" (to'liq sintaktik xususiyatga ega fe'l)" deb nomlaydi. To'rtinchi guruhda esa na o'timli na o'timsiz hisoblanuvchi noqis fe'llar bayon e'tiladi⁶. Ba'zi arab tilshunoslari fe'llarning sintaktik imkoniyatlari hamda to'ldiruvchi bilan bog'lanish usullarini yanada aniqroq tavsiflash maqsadida ularning boshqa xususiyatlariga ham e'tibor qaratganlar. Yuqorida nomi zikr etilgan ikki olimning fe'llarni tasniflashga bo'lgan yondashuvi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ular na o'timli va na o'timsiz deb tasniflab bo'ladigan noqis fe'llarni alohida ta'kidlamoqda. Zero, bu turdagi fe'llar bevosita harakatni emas, balki holat yoki zamon mazmunini ifodalaydi. Ular ega va kesimdan iborat gapning

²مصطفى الغلابي. جامع الدروس العربية. - القاهرة: دار السلام، 2020. - ص 51

³عبد الله بن عقيل الهمداني. شرح ابن عقيل. - القاهرة: دار التراث، 2006. - ص 142

⁴مصطفى عبد العظيم أحمد. الأفعال المتعدية بحرف الجر في اللغتين العربية و العبرية. مدينة الإسكندرية: جامعة الإسكندرية، 2023. - ص 19

⁵جمال الدين عبد الله بن هشام الأنصري. أوضح المسالك إلى ألفية. - بيروت: دار الفاروق، 2007. - ص 177

⁶عباس حسن. النحو الوافي. - القاهرة: دار المعارف، 2018. - ص 150

ma'nosini to'ldirishga xizmat qilgani bois, tilshunos olimlar tomonidan alohida mustaqil guruh sifatida ajratib ko'rsatilgan. Shu bilan birga, ayrim fe'llarning nutqda gohida bevosita to'ldiruvchi bilan, gohida esa predloglar vositasida qo'llanilishi kuzatiladi. Bunday fe'llarni faqat bir guruh doirasida cheklab o'rganish ilmiy jihatdan noaniqlik tug'dirishi mumkinligini inobatga olgan holda, Abbos Hasan ularni muayyan «to'liq sintaktik xususiyatga ega fe'llar» toifasiga kiritgan. Aynan shu fe'llarni o'timli yoki o'timsiz ekanligini aniqlashda olimlar o'rtasida ixtilof mavjud. Ibn Xishom al-Ansoriy o'zining «أوضح المسالك إلى ألفية بن مالك» (Ibn Molikning Alfiyya asarini tushunishning eng oson yo'llari) nomli asarida gohida vositali, gohida vositasiz to'g'ridan-to'g'ri to'ldiruvchi oluvchi fe'llar xususida nahvshunos olimlarning qarashlarini tahlil qiladi⁷. Ibn Usfur yondashuviga ko'ra, bunday fe'llarning ko'makchi bilan qo'llanilishi asl hisoblanadi va ular tabiatan o'timsiz fe'llar toifasiga kiradi. Abu Hayyon al-Andalusiy qarashiga binoan, mazkur fe'llar aslida o'timli bo'lib, tarkibdagi ko'makchi ma'noni kuchaytirish va ta'kidlash uchun xizmat qiluvchi qo'shimcha element sifatida talqin qilinadi. Biroq Ibn Xishom ushbu qarashning ilmiy jihatdan bahsli ekanligini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, muallif ushbu hodisaning tub ildizini arab qabilalarining lahjaviy xususiyatlariga bog'laydi. Unga ko'ra, fe'lning bevosita to'ldiruvchi olishi muayyan bir qabila lahjasiga xos bo'lsa, predlog orqali boshqarilishi boshqa bir qabilaning nutqiy an'anasidir. Lug'atshunos olimlar bu farqlarni yaxlit holda qabul qilganlari sababli, adabiy tilda har ikki holat ham me'yoriy hisoblanadi. Ibn Aqil esa fe'llarning faqat o'timli va o'timsiz turlariga bo'linishini yoqlab, boshqa xususiyatlarga ko'ra ularni alohida mustaqil guruhlarga ajratishga ehtiyoj yo'q deb hisoblaydi. Muallifning yondashuviga binoan, (كان) va uning sheriklari «noqis fe'llar» sirasiga kirgani sababli, ularni o'timli va o'timsiz fe'llarning umumiy tasnifiga kiritish shart emas⁸. Chunki ushbu fe'llar o'zining sintaktik va semantik tabiati bilan alohida grammatik qoidalarga bo'ysunadi. Ibn Hishom al-Ansoriy esa «شرح شذور الذهب في معرفة كلام العرب» (Arab tili sirlarini bilishda oltin zarralar sharhi) asarida fe'lning to'ldiruvchini qabul qilish xususiyatiga ko'ra uni yeti turga ajratadi. Ular quyidagilar: mutlaqo to'ldiruvchiga qabul qilmaydigan o'timsiz fe'llar, vositali to'ldiruvchi orqali o'timli bo'luvchi fe'llar, doimo bitta bevosita to'ldiruvchiga ta'sir o'tkazuvchi fe'llar, ba'zan bevosita, ba'zan vositali tarzda to'ldiruvchiga ta'sir qiluvchi fellar, ham o'timli ham o'timsiz holda qo'llaniladigan fe'llar, gohida umuman to'ldiruvchi qabul qilmaydigan, gohida esa ikkita to'ldiruvchiga ega bo'ladigan fe'llar, doimo ikkita to'ldiruvchiga ta'sir o'tkaza oladigan fe'llar⁹. Olim bu tasnif orqali arab tilining naqadar boy ekanligini isbotlab bergan. Bitta fe'lning ham o'timsiz, ham o'timli bo'lib kelishi yoki gohida o'timsiz, gohida ikkita to'ldiruvchi olishi shuni ko'rsatadiki, fe'lning vazifasi faqat lug'atda emas, balki matn mazmuni ichida belgilanadi.

Sibaveyhi va uning asariga sharh yozgan Abu Sa'd as-Sirofiy o'timli va o'timsiz fe'llarning klassik grammatikadagi o'ziga xos xususiyatlarini bayon qiladilar. Bu ikki tilshunos fe'llarning o'timli va o'timsizlik holatlarini tasniflashdan avval, diqqat-e'tiborini gapning egasiga qaratadi. As-Sirofiy agar fe'l egadan holi bo'lsa, u tugallangan gap (kalom) bo'la olmasligini bayon etadi. Tilshunos fe'lning sintaktik jihatdan to'liqsizligini, uning mazmuni faqatgina ega bilan birlashgandagina nutqiy voqelikka aylanishini isbotlaydi. Bu esa fe'llarning o'timli-o'timsizlik xususiyatlarini o'rganishda nafaqat fe'lning lug'aviy ma'nosini, balki uning ega bilan hosil qilgan

⁷ جمال الدين عبد الله بن هشام الأنصري. أوضح المسالك إلى ألفية. بيروت: دار الفاروق، 2007. – ص 177

⁸ عبد الله بن عقيل الهمداني. شرح ابن عقيل. القاهرة: دار التراث، 2006. – ص 142

⁹ جمال الدين عبد الله بن هشام الأنصاري. شرح شذور الذهب في معرفة كلام العرب. بيروت: دارحياة التراث العربي، 2001. – ص 187

zanjirini ham hisobga olish lozimligini ko'rsatadi. Shuningdek muallifning ta'kidlashicha, tilshunos olimlar fe'liy jumlaning egasini (foilni) ismiy jumlaning egasiga (mubtadoga) qiyoslaydilar. Chunki ikkala holatda ham ularning kesimi mazmunan tugallangan ma'lumot beradi. Ularning orasidagi asosiy farq eganing fe'liy jumlada fe'ldan keyin kelishi, ismiy jumlada esa kesimdan oldin kelishi hamda fe'liy jumlada muayyan zamonning mavjudligidir¹⁰. Masalan, "زيد قائم" (Zayd turdi.) jumlasida harakatning o'tgan zamonda sodir bo'lganiga ishora qilsa, "زيد قائم" (Zayd turuvchidir/ turibdi.) ismiy jumlasida kesim ism bilan ifodalanib, u muayyan bir zamon bilan cheklanmaydi, balki umumiy holat va doimiylikni ifodalaydi. Tilshunos olim as-Sirofiy fe'liy jumladagi ega har doim ham haqiqiy bajaruvchi bo'la olmasligini tushuntiradi. Ya'ni, bosh kelishikdagi subyekt (ega) fe'lning ta'siri ostida bo'lsa-da, u doim ham harakatni ixtiyoriy ravishda amalga oshirmaydi¹¹. Masalan, "مات زيد" (Zayd vafot etdi.) yoki "طلعت الشمس" (Quyosh chiqdi.) jumllarida harakat Zayd yoki quyoshning ixtiyori bilan sodir bo'lmagan. Bundan xulosa qilish mumkinki, o'timsiz fe'llarning egasi haqiqiy bajaruvchi bo'lmasa-da, grammatik tahlil doirasida ega sanaladi. O'timli fe'llarda esa ega, odatda, ham grammatik, ham mantiqiy jihatdan faol bajaruvchi vazifasini bajaradi. Masalan, "قرأ زيد الكتاب" (Zayd kitobni o'qidi.) jumlasida harakat bevosita subyektning irodasi va faoliyati natijasida yuzaga kelgan.

Xulosa: Arab tili grammatikasining klassik va zamonaviy bosqichlarida fe'llarni o'timli va o'timsiz guruhlarga ajratish masalasi nafaqat sintaktik, balki semantik asoslarga ega ekanligi aniqlandi. Maqolada o'rganilgan manbalar va tilshunos olimlarning qarashlari quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- Fe'llarning turkumlanishi, eng avvalo, harakatning ega bilan chegaralanishi yoki to'ldiruvchi tomon yo'nalishiga tayanadi. Klassik asarlarda bu jarayon nafaqat grammatik qoida, balki eganing fe'l bilan birinchi darajali bog'lanishi sifatida talqin qilingan.

- Arab tilshunos olimlarining terminologik ixtiloflariga qaramasdan, fe'llarni o'timli va o'timsizga ajratishda mantiqiy-semantik yondashuv ustuvorlik qiladi. Bu esa gapda eganing semantik tabiatini to'g'ri aniqlash orqali fe'liy jumllar mazmunini chuqur idrok etishga imkon beradi.

- O'timsiz fe'llarda ega har doim ham harakatning ixtiyoriy bajaruvchisi bo'la olmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday fe'llarda ega ko'pincha subyekt irodasidan tashqari yuz beradigan holat yoki zamon mazmunini tashuvchi element vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. مصطفى الغلابيني. جامع الدروس العربية. - القاهرة: دار السلام، 2020. - 773 ص
2. عباس حسن. النحو الوافي. - القاهرة: دار المعارف، 2018. - 616 ص
3. عبد الله بن عقيل الهمداني. شرح ابن عقيل. - القاهرة: دار التراث، 2006. - 1394 ص
4. جمال الدين عبد الله بن هشام الأنصاري. أوضح المسالك إلى ألفية. - بيروت: دار الفاروق، 2007. - 307 ص
5. جمال الدين عبد الله بن هشام الأنصاري. شرح شذور الذهب في معرفة كلام العرب. بيروت: دار حياة التراث العربي، 2001. - 254 ص
6. أبو سعد السيرافي. شرح كتاب سبويه، الجزء الأول. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2008. - 504 ص
7. ابن علي بن يعيش النحوي. شرح المفصل، الجزء الثامن. القاهرة: إدارة الطباعة المنيرة، 2002. - 2512 ص
8. أبو بشر عمرو بن عثمان بن قنبر سبويه. الكتاب. - القاهرة: مكتبة الناجي، 1988. - 446 ص

¹⁰ أبو سعد السيرافي. شرح كتاب سبويه، الجزء الأول. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2008. - 261 ص
¹¹ أبو سعد السيرافي. شرح كتاب سبويه، الجزء الأول. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2008. - 261 ص

9. مصطفى عبد العظيم أحمد. الأفعال المتعدية بحرف الجر في اللغتين العربية و العبرنية. مدينة الإسكندرية: جامعة الإسكندرية
2023. - 61 ص



INNOVATIVE
ACADEMY